

Unutilmas siymolar


Sobir Abdulla ustozini xotirlaydi...

“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 2022-yil 17-sonida akademik Naim Karimovning “Biz bilgan va bilmagan Hamza” nomli maqolasi e’lon qilingan edi. Maqlada shunday gaplar yozilgan: “Biz, yetmish-saksonga kirgan kishilar, shunday bir davrlarni boshdan kechirdikki, agar o’tgan va o’tayotgan hayotimizga nazar tashlasak, uning ikki bo‘limdan iborat ekani kundek ravshan bo‘ladi. Shu hayotning birinchi bo‘limida ulug’ shoir va yozuvchi sifatida ardoqlangan ijodkorlar ikkinchi bo‘limida sho‘ro davrining maddohlari yoki “xalq dushmanlari” sifatida xotiramizdan yulib tashlandi. Va, aksincha, sho‘ro davrida manglayiga oftob tegmagan qalam ahli xalq vijdonining jonli timsoli sifatida katta humrat va e’tibor qozondi. Zamonlar, mafkuralar, dunyoqarashlarning o‘zgarishi bilan ma’naviy qadriyatlarning o‘zgarishi tabiiy jarayon. Lekin badiiy ijodda shunday hollar bo‘ladiki, biz “puf, sassiq” deb chiqitga chiqargan ijodkorlar merosida o‘tkinchi asarlar bilan birga, adabiyot xazinasida qoladigan asarlar ham uchraydi. O‘zi va asarlari tarix chiqindixonasiga tashlangan ijodkorlar orasida Hamza Hakimzoda Niyoziy ham bor”. Olimning ushbu fikrlari juda to‘g’ri. Bu fikr faqat Hamzagagina emas, Hamzaning eng yaqin shogirdlaridan biri Sobir Abdullaga ham taalluqlidir.

Sobir Abdulla O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, O‘zbekiston xalq shoiri, yozuvchi va dramaturg, Hamza nomidagi Respublika davlat mukofoti laureati. Adibning “Tohir va Zuhra” dramasi va shu drama asosida yaratilgan “Tohir va Zuhra” filmi katta avlodlarga tanish. “Tohir va Zuhra” spektakli ayni kunlarda ham “Muqimiy” teatri sahnasidan tushmagan. Ammo, adib ijodi bilan bugungi yosh avlod: maktab o‘quvchilari, universitet talabalari tanish emas. Yozuvchi “Mavlono Muqimiy” nomli qiziqarli tarixiy-biografik romanning ham muallifidir. Sobir Abdulla ustozni Hamza Hakimzoda Niyoziy xotirasiga bag‘ishlab “Ustoz” deb nomlangan xotira maqolasini yozgan. Mazkur maqola Hamza Hakimzoda tavalludining 90 yilligiga bag‘ishlab 1979-yilda nashr etilgan “Hamza zamondoshlari xotirasida” nomli kitobda chop etilgan. Sobir Abdulla ushbu maqolasida ustozni Hamza Hakimzoda Niyoziyga nisbatan cheksiz hurmat va ehtiromini bayon qilgan. Ustoz taqdim etgan qiziqarli xotiralarga ko‘ra, Hamza 1927-yili Shohimardonga ketishi oldidan, Sobir Abdulla bilan Qo‘qonning “Yog‘ bozori” mahallasidagi choyxonada nonushta qilgan. Choyxona oldida bir bola o‘tgan-ketganlarning etik, botinkasini yog‘lab pul ishlari, oldidan odam uzilgan paytda Hamzaning “Hoy, hoy otamiz!” qo‘shig‘ini aytar ekan. Shu payt Hamza bolaning oldiga borib, uning musiqa maktabiga borib o‘qishga ishtiyogi bor yoki yo‘qligini so‘ragan. Bolaning o‘qish istagi kuchli bo‘lgan, lekin onasini boqish muammosi o‘qish uchun imkon bermayotganini aytgan. Hamza bolaning muammosini hal qilish maqsadida o‘sha joyning o‘zida Farg‘ona viloyati maorif mudiri Mirshohid Miroqilovga xat yozgan va xatni Sobir Abdulladan berib yuborgan. Ushbu xat orqali yetim bola Salomon Yevdaki o‘g‘li Qo‘qondagi musiqa maktabiga o‘qishga, onasi esa, o‘sha maktabning os-hxonasiha ishga joylashtirilgan. Hamzaning yordami bilan maktabga joylashgan bola katta bo‘lib, Hamza va Sobir Abdulla

oldidagi “qarz”ini munosib ravishda qaytargan. Yetim bola Salomon Yevdaki haqidagi Sobir Abdulla “Ustoz” maqolasida quyidagi ma‘lumotni taqdim qildi: “Oradan 30 yil o‘tgach, 1957-yili atoqli rejissyor Muzaffar “ota”ni yonimga olib, Hamzaxon akaning “Maysaraning ishi” komediyaning opera librettosini yozishga kirishdim. Moskvada o‘tadigan adabiyot va san’at o‘nkunligida bu asarni ko‘rsatish maqsadida iste’dodli kompozitor bilan shahardan tashqaridagi boqqa chiqib ishlay boshladik. Kompozitorning ba’zi harakatlari o‘sha, Hamzaxon aka tashabbusi bilan musiqa maktabiga joylashgan bolaga o‘xshab ketardi. Surishtirish natijasida Sulaymon Yudakov o‘sha bola bo‘lib chiqdi! Garchi, Yudakov o‘z tarbiya kunandasini yaxshi eslay olmasa ham, “Maysaraning ishi”ga munosib muzika yaratishda ustoz ishonchini oqlamoqda, “qarz”ini uzmoqda edi”. Sobir Abdulla, Hamzaning ibratlari haqida yozarkan, Hamza Hakimzoda Niyoziyning shogirdi sifatida ulg‘ayib, professorlik darajalariga erishgan boshqa barcha shogirdlari ham shunday qiziqarli xotiralari yozib berishlaridan umidvor bo‘ladi. Hamzaning shogirdlari Samarcand davlat universitetining professori Ulug‘ Tursun, yana bir universitet professori Muhammadjon Qoriyevlarga murojaat qilib, Hamza Hakimzoda Niyoziy haqida jonli xotiralari yozib berishlarini so‘raydi.

Hamza haqidagi xotiralarni o‘qib, u yetishtirgan shogirdlar O‘zbekiston davlati tarixida o‘z o‘rniga ega bo‘lganiga guvoh bo‘ldik. Misol uchun, Sobir Abdullaning o‘zi yaxshi shoir, yozuvchi va dramaturg, Sulaymon Yudakov esa O‘zbekiston xalq artisti, mashhur kompozitor bo‘lib yetishdi. Ulug‘ Tursun, Muhammadjon Qoriyevlari mashhur olim, professorlar bo‘lib tanildi. Bulardan tashqari, Hamzaning ustozligida ulg‘aygan shoir, dramaturg, aktyorlarning sanog‘iga yetib bo‘lmaydi. Sobir Abdulla Hamzaning sanoqsiz shogirdlaridan biri sifatida ustozni haqida xotira maqolasini e’lon qildi. Boshqa shogirdlaridan ham xotiralari yozib berishini so‘radi. Ammo,



Sobir Abdullaning o‘zi haqida hech kim qadriyatlarning o‘zgarishi tabiiy jarayon. Lekin badiiy ijodda shunday hollar bo‘ladiki, biz “puf, sassiq” deb chiqitga chiqargan ijodkorlar merosida o‘tkinchi asarlar bilan birga, adabiyot xazinasida qoladigan asarlar ham uchraydi. O‘zi va asarlari tarix chiqindixonasiga tashlangan ijodkorlar orasida Hamza Hakimzoda Niyoziy ham bor”. Olimning ushbu fikrlari juda to‘g’ri. Bu fikr faqat Hamzagagina emas, Hamzaning eng yaqin shogirdlaridan biri Sobir Abdullaga ham taalluqlidir.

Sobir Abdulla 1905-yilning 5-oktabrinda shoirlar makoni bo‘lmish Qo‘qon shahrida ishchi oilasida dunyoga kelgan. Otasi Abdullajon Olimov(1863–1933) madrasada tahsil olgan, adabiyotni sevgan, Qo‘qon shahridagi ko‘zga ko‘ringan ziyyolillardan biri bo‘lgan. Abdullajon Olimov ziyoli shaxs bo‘lgani uchun o‘zbek, fors-tojik she’riyatining jonkuyar muxlisi bo‘lgan. Ajoyib shaxmatchi, o‘sha davrning ko‘zga ko‘ringan shoirlari: Muqimi, Furqat, Zavqiy, Mavlavi Yo‘ldoshlar bilan do‘sit bo‘lgan. Uning onasi Hojarkxon Muhammadaminova(1878–1922) ham savodli ayol bo‘lib, yosh Sobirda adabiyotga havas uyg‘onishida oila muhitining ta’siri katta bo‘lgan. U dastlab eski matabda, so‘ng “usuli jadid” matabida o‘qigan.

Sobir Abdulla 1922–1924-yillarda Qo‘qondagi pedagogika bilim yurtida o‘qiydi. Bilim yurtida chiqadigan devoriy gazetalarda she’r va maqolalari bilan faol qatnashadi. 1924-yili bilim yurti Farg‘ona oblast ijroiya qo‘mitasi Sobir Abdullanı Toshkentga Ijrokom xodimlari ni tayyorlash kursiga o‘qishga yuboradi. 1924–1926-yillarda Toshkentdagı mahalliy kadrlarni tayyorlash kursida o‘qidi. Kursni tugatgach, Qo‘qonga qaytib, o‘z vazifasida ishlashni davom ettiradi. Shu vaqtida “Yangi Farg‘ona” gazetasida lirik va humoristik she’rlar bilan qatnashib turadi. U A.Pushkin, L.Tolstoy, A.Chexov, M.Gorkiy, V.Mayakovskiy va A.Tolstoy asarlarini ham qunt bilan o‘rganadi. 1926–1948-yillarda “Yangi Farg‘ona” gazetasida adabiy xodim, “Mushtum” jurnalida bo‘lim mudiri, Andijon viloyat teatri, O‘zbek davlat filarmoniysi va Muqimiy nomidagi teatrda adabiy emakdosh bo‘lib ishlagan.

Domla XX asr o‘zbek adabiyotiga G‘afur G‘ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda, Hamid Olimjon, Oydin, Zulfiyalar qatorida kirib kelgan. Shoiring ilk she’rlar to‘plami 1931-yili “Erk ilhomlari” nomida nashr etilgan. Shundan keyin uning “Navbahor”(1931), “Ko‘klam na’rasi”(1932), “Zavq”, “Gulshan”(1939), “So‘z va soz”(1943), “Davr qo‘shiqlari”(1949), “Hayot gulshani”(1959), “Hayot qo‘shiqlari”(1962) kabi she’riy to‘plamlari va 1965-yili

“Devon”i nashr etilgan. 1971-yili adib “Devon”i uchun Hamza nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan. Sobir Abdullaning she’riy ijodi lirika, hajviyot va dostonlardan iborat. U aruz vazniga qarshi kurash va umumiy badiiy ijodni mafkuralashtirish jarayoni kechayotgan bir davrda o‘zbek adabiyoti klassiklarning boy poetik an’analarni davom ettirib, mumtoz adabiyotimiz bilan zamonaviga adabiyot o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik vazifasini bajargan. Sobir Abdulla voqelikda ro‘y bergan voqe va hodisalarni ifodalashda aruz vazni imkoniyatlardan samarali foydalangan, ayniqsa, g‘azal janrida kishilarga zavq-shavq bag‘ishlaydigan, ularagi ezgulik va nafosat tuyg‘ulariga ruhiy oziq beradigan ko‘plab asarlar yozgan. Uning bastakorlar tomonidan kuya solingan eng yaxshi g‘azallari o‘zbek qo‘shiqchilik san’atining ravnaqiga muhim hissa bo‘lib qo‘shilgan.

Sobir Abdulla lirik she’rlar bilan bir paytda hajviy she’rlar ham yozgan. U liro-epik janrlarda ham samarali ijod qilgan, “Manyovr”(1931), “O‘rtoq Yoqubova”(1934), “Katta Farg‘ona kanaли”(1941), “Gul va sanam”(1957), “Quray ko‘z bir kelinchak”(1958), “Tun va tong” (1971) dostonlarining nashrda chiqishi fikrimiz dalili. Sobir Abdullaning o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga qo‘shgan katta hissalaridan yana biri uning dramatik asarlaridir. “Muxbirga hujum” nomli dastlabki pyesasi 1927-yili Qo‘qon dramatik truppasi tomonidan sahnaga qo‘yilgan.

“Tohir va Zuhra” nomli dramatik asari adib ijodining gultojidir. Sobir Abdulla yaratgan “Tohir va Zuhra” dramasiga bastakor To‘xtasin Jalilov musiqa yozib o‘zaro musiqa va pyesani uyg‘unlashtirgan. Ushbu asar G‘arb adabiyotining mashhur Romeo va Julietta“si va Sharq mumtoz adabiyotidagi “Layli va Majnun” afsonasi singari jahon adabiyotining mashhur ishqiy asarlar darajasiga ko‘tarilgan. Sobir Abdullaning ushbu asari asosida rejissyor N.G‘aniyev “Tohir va Zuhra” kino-filmini yaratgan. Bastakorlar T.Jalilov va Brovsinlar ushbu asarning opera spektaklini sahnalashtirgan. Sobir Abdulla “Tohir va Zuhra”, “Maysaraning ishi” operalari librettosining ham mualliflaridan birdir. Ijodkor adabiy merosida nasriy asarlar ham salmoqli o‘rin egallaydi. Uning 1931-yili nashr etilgan “Navbahor” to‘plamidan she’rlar bilan birga davrning dolzarbmavzularidayozilgan hikoyalarni o‘rin olgan. Sobir Abdullaning 1939-yili “Ulfat”, 1963-yilda “Soyalar” nomli hikoyalarni to‘plamlari nashr etilgan. Ushbu hikoyalarni “Mavlono Muqimiy” romanini yaratish uchun o‘ziga xos tayyorgarlik vazifasini o‘tagan. Sobir Abdulla Muqimiy va uning zamondoshlarini ko‘rgan kishilar xotiralari asosida 1965-yili “Mavlono Muqimiy” romanini yozadi. Roman Muqimiy hayoti va ijodi, u yashagan tarixiy davr manzaralarini haqqoniy aks etgan. 1972-yilning 24-oktabrda Toshkent shahrida vafot etgan. Chig‘atoy qabristoniga dafn etilgan. 2022-yilning yozida kamina Sobir Abdullaning nabirasi Yulduz Barotova bilan hamkorlikda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi adabiyot muzeysiida Sobir Abdullaning memorial muzeini tashkil etishga muvaffaq bo‘ldik. Sobir Abdullaning hayoti va ijodi adabiyotshunos olma Malohat Abdurahmonova tomonidan o‘rganilgan. Uning she’riy, nasriy, dramatik asarlar, badiiy mahorati o‘rganilmagan.

Azimjon DAVRONOV,
ToshDO‘TAU katta
o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori(PhD)